

**SUV TA'MINOTI TIZIMLARIDA ICHIMLIK SUVI SIFATINI YAXSHILOVCHI
SUV BERISH VA TARQATISHNING HISOBLI HOLLARI**

Shahobiddin Mamarasulov

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Oliy ilm fan maktabi” kordinatori*

Suv ta'minoti tizimida sarflar va bosimlar tasodifiy uzluksiz o'zgarib turadi. Bu sharoitda loyihalovchilar tizimda ro'y berishi mumkin bo'lgan eng og'ir chegaraviy hollarga mo'ljallangan tizim yaratilishi lozim. Bu chegaraviy hollar uchun tizimda boshqa ko'rsatgichlar aniqlanadi. Bir necha variant ishlab chiqilishi mumkin va ulardan qulayi taminlanishi mumkin. Kontur rezervuarli tizimlari uchun quyidagi hisobli hollar ko'rsatilishi lozim:

- nasos, suv uzatgichlar minoraning hamkorlikdagi ishi maksimal suv iste'mol paytidagi holi;
- nasos, suv uzatgichli va minoraning hamkorlikdagi ishi maksimal suv iste'mol paytidagi yong'in paydo bo'lish paytidagi holi;
- nasos, suv uzatgichli va minoraning hamkorlikdagi ishi maksimal suv iste'mol paytidagi magistral quvurlarida avariya ro'y berish paytida;
- suv minorasiga maksimal transit paytidagi, ya'ni minimal suv iste'moli paytidagi holi.

Huddi shunday shahar aholisining ichimlik suviga bo'lgan talabi kabi boshqa sarflar ya'ni ishlab chiqarish, sug'orish bundan tashqari suvning isrofi, to'la bir kech kunduz davomidagi sarfi hisoblab chiqiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida suv sarfi odatda ish vaqtiga bog'liq va suv grafigi loyihasi texnologlar tomonidan beriladi. Ya'ni sarf grafigi, xo'jalik ichimlik va dushlar uchun ham beriladi. Shahar tarmoqlarida tez-tez ishlab chiqarish korxonalarining talabini qondirish maqsadida zaxira toza suv hovuzlariga aholiga uzatilayotgan nasos stansiyalaridan yetkazib beriladi.

Ko'cha va ko'kalamzorlarni sug'orish uchun tarmoqdan olinadigan suv sarfi bir kecha kunduz uchun eng ko'p suv iste'moliga qarab rejalashtiriladi (me'yorlar bo'yicha 100%), bir kecha kunduz davomida o'rtacha suv sarfi 50%ni tashkil etishi mumkin. Bir kecha kunduz davominig kam suv iste'mol qilish davrida bu hisobga olinmaydi. Sug'orish uchun sarfning kunduzgi soatlarida taxmiman 600-700 lardan 18-19 soatgacha, ya'ni 18 soat beriladi. Ushbu davrda suvning olish intensivligi teks deb olinganda 12 soat davomida bo'ladi. Buyurtmachi bilan kelishilgan holda sug'orish rejimi 2 muddatda olish mumkin, masalan: ertalab 6-7 gacha va kechki 18-21.

Barcha ko'rsatilgan suv iste'mol kategoriyalari uchun bir kecha kunduz davomida suvning iste'mol grafiglari tuzilish kerak. Bu grafiglar ordinatalari shaharning suv iste'moli asosiy garfika ordenatasi bilan yig'iladi va natijada shahar suv quvuri tarmog'idan sarflanadigan suvning yig'indi grafigi olinadi.



Yig'ildigan grafiklar ordenatalari yig'indi grafik ordenatalaridek shahar bo'yicha suv sarfining umumiy yig'indisi presentlar bilan ko'rsatilishi lozim. Yig'indi grafiklar tarmoqni hisoblash uchun nasos bo'lib xizmat qiladi. Bu grafiklarda kelib chiqqan holda yoki bu grafiklar asosida nasoslar orqali suv berish grafigi, minora va nasoslarning ta'minlanish sxemalari aniqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Табушкинов Ю.А. va boshqalar “Интендное оборудование здание и сооружение” М., Высшая школа 1989г.
2. Кедров В.С., Лофцов Е.Н. «Санитарное технические оборудование здание» М., Стройиздату 1989 г.
3. Mirzayeva A. “Bin ova inshootlarni muxandislik jixozlash” fani bo'yicha o'quv qo'llanma. Sam.DAQI, Samarqand 2011 yil.

